



## SHIRINLIK EMAS SUV YETISHMOVCHILIGI TISHLARNI YEMIRYABDI- BOLALARDA YASHIRIN KARIYES EPIDEMIYASI

*Allamurodova Baxtigul Boymurodovna*

*Termiz iqtisodiyot va servis Universiteti Tibbiyot fakulteti*

*Stomatologiya yoʻnalishi 3 - bosqich talabasi*

*[allamurodovabaxtigul4@gmail.com](mailto:allamurodovabaxtigul4@gmail.com)*

*Ilmiy rahbar: Saidov Jasur Baxtiyorovich*

*Tibbiy klinik fanlar kafedrasi mudiri oʻqituvchi*

*[jasur.saidov.8778@gmail.com](mailto:jasur.saidov.8778@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar orasida keng tarqalgan yashirin kariyes holatlari, uning asosiy sabablari sifatida shirinlik isteʼmoli emas, balki toza ichimlik suvi tanqisligi va suvsizlantirilgan hayot tarzi tahlil qilinadi. Maqolada gigiyena, ichimlik suvining sifati, florid yetishmovchiligi va ogʻiz salomatligining bogʻliqligi boʻyicha zamonaviy ilmiy yondashuvlar bayon etiladi. Tadqiqot natijalari bolalar tish sogʻligʻini saqlashda sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish zarurligini koʻrsatmoqda.

**Kalit soʻzlar:** Kariyes, tish, sogʻlom turmush tarzi, gigiyena, suv tanqisligi, ogʻiz gigiyenasi.

Soʻnggi yillarda bolalar oʻrtasida tish kariyesi, xususan, yashirin shakllari (yuzasida sezilmaydigan, ammo tish ichida chuqurlashib boradigan kariyes) sezilarli darajada oshib bormoqda. Koʻplab stomatologlar buni koʻproq shirinliklar isteʼmoli bilan bogʻlashsa-da, zamonaviy tadqiqotlar ichimlik suvi yetishmovchiligi va ogʻiz gigiyenasiga eʼtiborning pasayishi kabi omillarni asosiy sabab sifatida koʻrsatmoqda.

### **1. Yashirin kariyes nima va nima uchun u xavfli?**

Yashirin kariyes – bu dastlab tashqi belgilar sezilmaydigan, biroq tish ichki qatlamlarida rivojlanadigan kariyes turi boʻlib, u ogʻriq bermaguncha yoki tish

buzilmaguncha aniqlanmasligi mumkin. Bu holat asosan doimiy gigiyenaning yetarli emasligi, soʻlak tarkibining oʻzgarishi va florid moddasining tanqisligi bilan bogʻliq.

## **2. Ichimlik suvi tanqisligi va tish salomatligi**

Koʻplab tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqdaki, ichimlik suvi tarkibidagi florid moddasining etarli darajada boʻlmasligi tish emalini kuchsizlantiradi. Bu holat qishloq joylarda, yer osti suvlari chuqurlikda joylashgan hududlarda ayniqsa dolzarb. Shuningdek, suv yetishmovchiligi natijasida bolalar ichimlik sifatida shirin gazli ichimliklarga murojaat qilishadi, bu esa kariyes xavfini yanada kuchaytiradi.

## **3. Gigiyena va resurs yetishmovchiligi**

Suvning cheklanganligi shaxsiy gigiyena vositalaridan foydalanishni ham qiyinlashtiradi. Tish yuvish tez-tez amalga oshirilmaydi, yoki bu jarayon faqat ertalabki oddiy yuvinish bilan cheklanadi. Bu esa ogʻiz boʻshligʻida bakteriyalarning koʻpayishiga, tish emalining yemirilishiga olib keladi.

## **4. Profilaktika va yechimlar**

- **Fluorli tish pastalaridan foydalanishni keng targʻib qilish**
- **Maktablarda stomatologik skrining dasturlarini joriy etish**
- **Ichimlik suvini markazlashtirilgan dezinfeksiyalash va floridlash**

### **tizimlarini takomillashtirish**

- **Ota-onalar va bolalar oʻrtasida ogʻiz gigiyenasi boʻyicha maʼrifiy ishlarni kuchaytirish**

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bolalarda uchrayotgan yashirin kariyes holatlari koʻpincha notoʻgʻri oziqlanish yoki shirinlik isteʼmolidan koʻra, ichimlik suvi sifatining pastligi, organizmda florid yetishmovchiligi va ogʻiz gigiyenasiga eʼtiborning sustligi bilan chambarchas bogʻliq. Koʻplab hududlarda suv taʼminoti markazlashmagan, mavjud suv manbalari esa sanitariya-meʼyorlarga javob bermaydi. Bu holat nafaqat suvsizlanishga, balki ogʻiz boʻshligʻida tabiiy himoya qatlaminig zaiflashishiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, yosh bolalarda tish shifokoriga borish madaniyatining pastligi, stomatologik skrining va profilaktika choralari yetarli darajada yoʻlga



qo'yilmaganligi muammoning chuqurlashuviga sabab bo'lmoqda. Aksariyat holatlarda kariyes tashqi belgilarsiz kechadi va ota-onalar tishdagi buzilishlarni kechikkan bosqichda payqaydi.

Shuningdek, bolalar orasida shirin gazli ichimliklar va sun'iy sharbatlarga bo'lgan talabning ortishi ham gigiyena yetishmovchiligi bilan birgalikda kariyes rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Lekin asosiy xavf omili sifatida organizmning suvsizlanishi va sifatsiz ichimlik suvidan foydalanish alohida ajralib turadi.

Yashirin kariyesning bolalar orasida keng tarqalishi faqatgina ovqatlanish muammosi emas, balki ekologik va ijtimoiy-sanitariya muammosidir. Suv sifati, gigiyena madaniyati, stomatologik xizmatlarning mavjudligi va ota-onalar ongining pastligi bu muammoni yanada chuqurlashtirmoqda.

Muammoni hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur:

1. Aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash va florid moddasining normativ darajada bo'lishini nazorat qilish.
2. Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida og'iz gigiyenasi bo'yicha muntazam ma'rifiy ishlarni tashkil qilish.
3. Bolalarda stomatologik ko'rik va profilaktika ishlarini tizimli yo'lga qo'yish.
4. Ota-onalar bilan doimiy muloqot orqali ularni bolalar tish salomatligi mas'uliyatiga jalb etish.

Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda, yashirin kariyes epidemiyasining oldini olish mumkin. Sog'lom tishlar – bu sog'lom avlod garovidir.

Yashirin kariyes epidemiyasi bilan kurashish uchun shirinlik iste'molini cheklash yetarli emas. Ichimlik suvi sifatini yaxshilash, bolalarda gigiyenani oshirish va profilaktik stomatologik xizmatlarni kengaytirish orqali bu muammoni hal qilish mumkin. Aks holda, yashirin kariyes uzoq muddatli stomatologik muammolar, hatto butun organizmga ta'sir qiluvchi og'ir asoratlar bilan yakunlanishi mumkin.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. World Health Organization (2023). *Oral health status report*.





2. Ibragimova N.M. (2021). “Tish kariyesining yashirin shakllari: diagnostika va profilaktika”. *Tibbiyot jurnali*, 4(2), 56–62.
3. Qodirov A.R. (2022). “Ichimlik suvi va bolalar salomatligi o‘rtasidagi bog‘liqlik”. *O‘zbekiston sog‘liqni saqlash axborotnomasi*, 6(1), 14–20.
4. American Dental Association (ADA). (2022). *Fluoride and Dental Health in Children*.